

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.B.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ALIYEV BAXTIYOR XOJAYAROVICH

**JANUBIY O'ZBEKISTON SUV OMBORLARIDA GIDROBIONTLAR
BIOXILMA-XILLIGIGA ABIOTIK VA ANTROPOGEN FAKTORLAR
TA'SIRI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Aliyev Baxtiyor Xojayarovich

Janubiy O'zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen faktorlar ta'siri 3

Алиев Бахтиёр Хожаярович

Влияние абиотических и антропогенных факторов на биоразнообразие гидробиев в водохранилищах Южного Узбекистана 21

Aliyev Bakhtiyor Khojayarovich

The influence of abiotic and anthropogenic factors on the biodiversity of aquatic organisms in water bodies of Southern Uzbekistan 39

U'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.B.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ALIYEV BAXTIYOR XOJAYAROVICH

**JANUBIY O'ZBEKISTON SUV OMBORLARIDA GIDROBIONTLAR
BIOXILMA-XILLIGIGA ABIOTIK VA ANTROPOGEN FAKTORLAR
TA'SIRI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

9-14364
Samarqand – 2026

Falsafa doktri (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/B939 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va "Ziynet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boymurodov Xusniddin Toshboltayevich
biologiya fanlari doktri, professor

Rasmiy opponentlar:

Mambetullayeva Svetlana Mirzamoratovna
biologiya fanlari doktri, professor

Sheraliyev Baxtiyor Maxmutali o'g'li
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktri (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va botexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 08/2025.27.12 B.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5 iyun kuni soat 13⁰⁰-dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil 140103, Samarqand shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy, universitetning 6-bino, 3-qavat, 693-xona Tel: +99855-707-76-86, Fax: +99866-234-76-86, e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va botexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (140103-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Address: 140103, Samarkand city, Mirzo Ulugbek street, 77, Tel.: +998-66-234-07-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 22 may kuni tarqatildi
(2026-yil 22 may dagi 4 -raqamli reyestr bayonnomasi)



A.R. Jabborov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, biologiya fanlari doktri, professor

A.A. Nurniyozov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktri (PhD), dotsent

X.B. Yunusov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktri, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilikning ortishi natijasida tabiiy va sun'iy suv ekotizimlari biologik xilma-xilligining qisqarishi suv ekotizimlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Suv omborlari va unda tarqalgan gidrofauna turlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, abiotik va antropogen omillar ta'sirida ular biotoplarining o'zgarishi gidrobiontlar faunasi transformatsiyasiga va ko'plab noyob turlarning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan, kuchli abiotik va antropogen omillar ta'siri ostidagi hududlar gidrobiontlari populyatsiyalarining o'zgarishini aniqlash va muhofazaga muhtoj turlarini saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda abiotik va antropogen omillar ta'siri ostida qolgan gidrobiontlarning tur tarkibini aniqlash, ekologik baholash va ulardan oqilona foydalanish muhim hisoblanadi. Bu yo'nalishda kontinental sun'iy suv ekotizimlaridagi gidrobiontlar turlarini inventarizatsiya qilish, biotoplarda tarqalishini ochib berish, ularning xalqaro ma'lumotlar bazasini yaratish, iqtisodiy samarador turlardan ratsional foydalanishga oid ilmiy tadqiqot ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Aytish lozimki, qurg'oqchil hududlardagi sun'iy suv havzalarida ikkipallali va qorinoqqli suv mollyuskalari, yuksak qisqichbaqalar va baliqlar turlarining yashovchanligi, suv omborlarining mavsumiy gidrologik rejimi va fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishiga bog'liqdir. Keyingi yillarda, sun'iy suv ekotizimlarining yaratilishi va qishloq xo'jaligining kengayishi mavsumiy yoki turg'un bo'lmagan suv havzalarida tarqalgan gidrobiontlar tur tarkibining o'zgarishi, aksariyat turlarining yo'qolishi va invaziv vakillarning areali kengayishiga olib kelmoqda. Antropogen omillar ta'sirida suv ekotizimlariga yangi gidrobiont kirib kelishi hududdagi endemik gidrobiontlarning transformatsiyasini yoki ularning inqirozini belgilab bermoqda. Suv ekotizimlarida gidrobiontlarning zamonaviy holatini baholash, inqirozga uchragan va inqirozga moyil populyatsiyalarini aniqlash, iqtisodiy ahamiyatga ega turlardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda respublikamizda sun'iy suv ekotizimlarining hayvonot dunyosi bioxilma-xilligini muhofaza qilish va ekotizim barqarorligini ta'minlash yo'nalishida katta yutuqlarga erishildi. Bu borada, suv ekosistemalari barqarorligini ta'minlash, gidrobiontlarning noyob va kamayib borayotgan turlarini muhofaza qilish, saqlab qolish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida¹ "Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash" bo'yicha muhim vazifalar va chora-tadbirlar belgilab berilgan. Bu vazifalardan kelib chiqqan holda, Janubiy O'zbekiston suv omborlari suv ekotizimlari gidrobiontlari tur tarkibini aniqlash, ularning xilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta'sirini baholash hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish choralari ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son farmoni.

O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" 2016-yil 19-sentabrda 408-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi "Baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-281-son Qarori; "Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 25-sentabrda PQ-3286-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "1992- yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyaga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" 1995- yil 6- maydagi 82-I-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritish tartibi to'g'risida" 2018-yil 19-dekabrda 1034-son hamda "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 11-iyundagi 484-son Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlarning tur tarkibi, ekologiyasi, bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta'siri bo'yicha xorijlik olimlardan ikkipallali mollyuskalarni Huber Markus (2010, 2012), A.F. Bogan (2010, 2013), Cuttelod va boshq.(2011, 2014), S. Yoshida va boshq. (2015); suv qorinoyoqli mollyuskalarini T.D.Robert (2004), P.Glöer, I.Sirbu (2006), K.Skowronska-Ochmann, P.Cuber, I.Lewin (2012), A.D.Robert (2013); yuksak qisqichbaqalar bo'yicha H.Baytashoglu (2021,2023), N.Peer, G.Gouws (2023,2024); baliqlarni M. Kottelat (2012), V.B. Salnikov, I.Doadrio (2012), B.W.Coad, N.G.Bogutskaya (2012), J.S.Nelson, T.C.Grande, M.H.Wilson (2016), R. Van der Laan (2017), R. Fricke, W.N. Eschmeyer (2019), R. Froese, D. Pauly (2019), B. Sheraliyev, S. Allayarov, Z. Peng (2020) va boshqalar ishlarida o'z ifodasini topgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan ikkipallali mollyuskalar bo'yicha V.B.Bogatov, Y.I.Starobogatov (2005, 2010), N.I.Andreyev (2010), M.O.Son (2010, 2012), L.N.Yanovich (2013), D.B.Kuzmenkin (2015); qorinoyoqli mollyuskalarni E.Lazutkina (2003,2004), A.Shileyko, T.Rimjanov (2013), S.Andreeva va b. (2017, 2018), T.Sitnikova et al. (2017), M.Vinarski et al. (2017, 2018); yuksak qisqichbaqalarga oid V.S.Labay (2011), Yu.N.Makarov (2012, 2016); baliqlarni G.K. Kamilov (1964, 1973), A.A. Amanov (1985) lar tomonidan girobiontlarning biologik xilma-xilligi, tur tarkibi, tarqalish zichligi, populyatsiyalari va indikatorlik xususiyatlari bo'yicha izlanishlar olib borilgan.

Respublikamiz suv ekotizimlaridagi gidrobiontlarni o'rganish bo'ylariga tadqiqotlar A.Muhammadiyev (1986), Z.I.Izzatullayev (2018, 2019), A.Kuzmetov

(2020, 2023), T.V.Salixov, B.G.Kamilov, A.K.Atadjanov (2016, 2022), I.M. Mirabdullayev, U.T. Mirzayev, V.N. Xegay (2010, 2019), I.M. Mirabdullayev, U.T. Mirzayev, A.R. Kuzmetov, Z.O. Kimsanov (2011, 2022), M.A. Yuldashov, T.V. Salixov B.G. Kamilov (2018, 2023), X.T.Boymurodov (2017, 2019), I.M.Mirabdullayev (2022, 2023), A.N.Egamqulov (2021), B.N.Otaqulov (2021), M.B.Xojiyev (2021, 2024) va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, ularda asosan faunistik o'rganishlarga urg'u berilgan. Hozirgacha Janubiy O'zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta'siri hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid tadqiqotlar maxsus to'liq o'rganilmagan. Bugungi kunda Janubiy O'zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta'sirini tahlil qilish va baholash hamda kamyob turlarini muhofaza qilish choralari ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqotlari rejasiga muvofiq Bio-01-2021 "Janubi-g'arbiy O'zbekistonning hayvonot dunyosi faunasi, tarqalishi, ekologiyasi va muhofazasi hamda ulardan ratsional foydalanish" (2020-2022) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubiy O'zbekiston suv omborlarida ayrim gidrobiontlarning (Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Corbiculidae, Astacidae, Cyprinidae, Gobionidae, Leuciscidae, Xenocyprididae, Poeciliidae, Percidae oilalari) bioxilma-xilligini aniqlash, ularga abiotik va antropogen omillar ta'sirini ochib berish va kamyob turlarni muhofaza qilish choralari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy O'zbekiston suv omborlari ikkipallali va suv qorinoyoqli mollyuskalar, yuksak qisqichbaqalar va baliqlarning tur tarkibini aniqlash hamda populyatsiyalarini hozirgi holatini baholash;

gidrobiontlarning turli biotoplarda tarqalishi, populyatsiyalarini zichligini aniqlash va ekologik guruhlariga ajratish;

gidrobiontlarning tarqalishiga abiotik va antropogen omillar ta'sirini tahlil qilish;

gidrobiontlarning suv omborlari kesimida bioxilma-xillik ko'rsatkichlarini aniqlash.

abiotik omillar ta'sirida mollyuskalarda yuz beradigan konxologik o'zgaruvchanlikni aniqlash;

suv havzalarini ekologik baholashda bioindikator gidrobiontlarning saproblik xususiyatlarini ochib berish;

muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Janubiy O'zbekiston suv omborlarida tarqalgan ikkipallali va suv qorinoyoqli mollyuskalar, yuksak qisqichbaqalar hamda baliqlar olingan.

Tadqiqotning predmeti. Janubiy O'zbekiston suv omborlarida tarqalgan

gidrobiontlar taksonomiyasi, ekologik xususiyatlari, biologik xilma-xilligi, konxologik o'zgaruvchanligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada gidrobiologik, malakologik, ekologik, biometrik, molekulyar-genetik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Janubiy O'zbekistonning suv omborlari va unga yondosh suv ekotizimlarida 11 oilaga mansub 25 turdagi gidrobiontlar: ikkipallali mollyuskalarning 5 turi, suv qorinoyoqli mollyuskalarning 8 turi, yuksak qisqichbaqalarning 1 turi hamda baliqlarning 11 turi aniqlangan;

Janubiy O'zbekiston suv ekotizimlari faunasi uchun ilk bor 4 tur gidrobiont aniqlangan;

tadqiqot hududi ikkipallali mollyuskalaridan *Corbicula fluminalis* (O. F. Muller, 1774) mitoxondrial DNK (COI) geni va yuksak qisqichbaqalardan *Pontastacus leptodactylus* (Eschscholtz, 1823) ribosomal RNK (18S) geni bo'yicha molekulyar identifikatsiyalangan;

Janubiy O'zbekiston suv ekotizimlarida gidrobiontlarning biotoplar bo'yicha turli populyatsiyalarda taqsimlanishi va zichligi hamda suv omborlarda gidrobiontlarning ekologik guruhlariga tavsiflangan, suv qorinoyoqli va ikki pallali mollyuskalarning bioindikatorlik xususiyatlari ochib berilgan;

suv ekotizimidagi abiotik va antropogen omillarning gidrobiontlar tarqalishiga va ulardagi o'zgaruvchanlikka ta'siri isbotlangan hamda Janubiy O'zbekiston suv omborlarida muhofazaga muhtoj turlarning cheklovchi omillari aniqlangan va saqlab qolishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muhofazaga muhtoj va zichligi kam bo'lgan stenobiont turlar *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea*, *Corbiculina tibetensis* populyatsiyalarining hozirgi holati baholangan va ularni saqlab qolish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

suv omborlarida gidrobiontlarning tarqalish nuqtalari, joylari, koordinatlari aniqlanib, GBIF bioxilma-xillik bo'yicha xalqaro portaliga kiritilib, ular asosida hududlar suv ekosistemalarining populyatsion ko'rsatkichlarini aniqlash samaradorligining oshishi isbotlangan.

ayrim turlar molekulyar identifikatsiyalangan va xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan. Ikkipallali va suv qorinoyoqli mollyuskalarining suv ekosistemalaridagi bioindikatorlik xususiyatlari ochib berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida foydalanilgan gidrobiologik, malakologik metodlar va yondashuvlar asosida olingan tajriba natijalarini nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, biometrik ma'lumotlarning statistik tahlil qilinganligi, tadqiqotning asosiy natijalarini yetakchi ilmiy jurnallarda nashr etilganligi, shu bilan birgalikda, ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Janubiy O'zbekiston suv omborlari ikkipallali va suv qorinoyoqli mollyuskalari, yuksak qisqichbaqalar va baliqlarining turlar tarkibi aniqlanganligi, turli biotoplarda tarqalish xususiyatlari, populyatsiya va organizm

ko'rsatkichlariga abiotik hamda antropogen omillar ta'sirining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *Lymnaea subangulata*, *L. bactriana* turlarining bioindikator xususiyatlari orqali turli darajada organik ifloslangan suv havzalarining saproblik darajasini baholashda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubiy O'zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta'siri bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

suv omborlarda tarqalgan 25 tur gidrobiontlarning ro'yxati shakllantirilgan, ularning ekologik tavsifi, tarqalishi, bioxilma-xilligi, abiotik va antropogen omillarning ta'siri, xo'jalikdagi ahamiyati hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid yangi ma'lumotlar va ishlab chiqilgan tavsiyalar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 3-fevraldagi 03-03/1-03/3-1040-son ma'lumotnomasi). Natijada, Surxondaryo va Qashqadaryo havzasidagi suv omborlari gidrobiontlari bioxilma-xilligining davlat monitoringini olib borish, hayvonot dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish hamda gidrobiontlarning zamonaviy tur tarkibi, areallari va geoaxborot ma'lumotlari bazasini shakllantirish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalari asosida Janubiy O'zbekiston suv ekotizimlarida uchraydigan gidrobiontlarning bioindikatorlik xususiyatlari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi faoliyatida suv havzalarini ekologik baholash amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 3-fevraldagi 03-03/1-03/3-1040-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv havzalarining organik ifloslanganlik (saproblik) darajasini aniqlash va ekologik baholash imkonini bergan;

Janubiy O'zbekiston suv omborlarida gidrobiontlarning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar global bioxilma-xillik axborot bazasiga (GBIF, www.gbif.org) joylashtirilgan (Global bioxilma-xillik axborot bazasi sertifikat, 2024-yil 26-iyul). Natijada, Janubiy O'zbekiston suv omborlaridagi gidrobiontlar tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlardan xalqaro miqyosda foydalanish imkonini bergan;

Corbicula fluminalis (O.F. Müller, 1774) va *Pontastacus leptodactylus* (Eschscholtz, 1823) turlarining nukleotidlar ketma-ketligi fragmentlari aniqlanib, olingan natijalar Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBanki bazasida OR233337 va PP125709 inventar raqamlari orqali ro'yxatga olingan (National Center for Biotechnology Information, 2023-yil 10-iyul, 2024-yil 20-yanvar ma'lumotnomalari). Natijada, dunyoning turli mintaqalarida tarqalgan ushbu turlarning identifikatsiyasi va filogenetik tahlilini amalga oshirish bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi tarkibini boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami

22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jumallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Suv omborlari gidrobiontlarining o'rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobida suv omborlari, suv ekotizimlari gidrobiontlaridan suv qorinoyoqli, ikkipallali mollyuskalar, yuksak qisqichbaqalar va baliqlarning faunasi va ekologiyasini o'rganilish tarixi, ularning bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta'sirini o'rganishga oid tadqiqotlar bayon qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Janubiy O'zbekiston tabiati, tadqiqot hududi va qo'llanilgan uslublar”** deb nomlangan ikkinchi bobida Janubiy O'zbekiston tabiati va ekotizimlari, tajriba o'tkaziladigan joy va unda qo'llanilgan morfometrik, biologik xilma-xillik ko'rsatkichlari, molekulyar-genetik tahlil usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mollyuskalarni o'rganishda Jadin (1952), Izzatullayev (2018, 2019), Barishyev (2023) uslublaridan foydalanildi. Baliqlarni I.M.Mirabdullayev va boshqalarning (2020) uslublaridan foydalanildi. Tadqiqotlar uchun 2020-2024- yillarning bahor, yoz va kuz fasllarida Janubiy O'zbekistonning Janubiy Surxon, Oqtepa, To'palang, Uchqizil, Degrez, Tallimarjon, Qalqama, Chimgurg'on, Qizilsuv va Pachkamar suv omborlaridan, Surxondaryo va Qashqadaryo daryolaridan materiallar terildi. Gidrobiontlarni yig'ishda to'r xalta, tishli yulg'ich-dragalardan foydalanildi. Yirik chig'anoqlar hajmlari shtangentsirkul, maydalari esa MBS-1 okulyar mikrometridan foydalanilib o'Ichandi. Suv muhitining fizik-kimyoviy xususiyatlari - kislotalilik darajasini o'lchashda elektron pH-metrdan (rusumi Mark-901), harorat va kislorod miqdori oksimetridan (rusumi MARK-303M) foydalanib o'Ichandi.

Ishning **“Tadqiqot hududi suv omborlari gidrobiontlarining taksonomiyasi, morfo-biologiyasi, ekologiyasi va tarqalishi”** deb nomlangan uchinchi bobida ikkipallali mollyuskalarning Corbiculidae oilasiga mansub 5 turi, suv qorinoyoqli mollyuskalarining Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae oilalariga mansub 8 turi, yuksak qisqichbaqalarning Astacidae oilasiga mansub 1 turi va baliqlarning Cyprinidae, Gobionidae, Leuciscidae, Xenocypridae, Poeciliidae, Percidae oilalariga mansub 11 turi tarqalganligi va morfo-ekologik tavsifi to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, quyida ularning sistematik ro'yxati keltirilgan.

Ikkipallali mollyuskalar

Bivalvia sinfi²

Cardiiformes turkumi

Corbiculidae Gray, 1847 oilasi

Corbicula Megerle, 1811 urug'i

1. *Corbicula cor* (Lamarck, 1818)
2. *Corbicula fluminalis* (O.F. Müller, 1774)
3. *Corbicula purpurea* Prime, 1864

Corbiculina Dall, 1903 urug'i

4. *Corbiculina tibetensis* (Prashad, 1929)
5. *Corbiculina ferghanensis* (Kursalova et Starobogatov, 1971)

Suv qorinoqqli mollyuskalari.

Gastropoda sinfi

Pulmonata kenja sinfi

Lymnaeiformes turkumi

Lymnaeidae Rafinesque, 1815 oilasi

Lymnaea Lamarck, 1799 urug'i

6. *Lymnaea truncatula* (Müller, 1774)
7. *Lymnaea thiesseae* (Clessin, 1979)
8. *Lymnaea subangulata* (Roffien, 1868)
9. *Lymnaea auricularia* (Linnaeus, 1758)
10. *Lymnaea bactriana* Hutton, 1850

Physidae Firzinger, 1833 oilasi

Costatella Dall, 1870 urug'i

11. *Costatella acuta* (Draparnaud, 1805)

Planorbidae Rafinesque, 1815 oilasi

Planorbis Geoffroy, 1767 urug'i

12. *Planorbis planorbis* (Linne, 1758)
13. *Planorbis tangitarenensis* Germain, 1878

Yuksak qisqichbaqasimonlar

Malacostraca sinfi

Decapoda turkumi

Astacidae Latreille, 1802 oilasi

Pontastacus Bott, 1950 urug'i

14. *Pontastacus leptodactylus* (Eschscholtz, 1823)

Baliqlar

Osteichthyes sinfi³

Cypriniformes Goodrich, 1909 turkumi

Cyprinidae Rafinesque, 1815 oilasi

15. *Carassius gibelio* (Bloch, 1782)
16. *Cyprinus carpio* (Linnaeus, 1758)
17. *Schizothorax sp.*

² Z.I. Izzatullaev. "O'rta Osiyo va unga yondosh maydonlarining suv ekosistemalari mollyuskalari faunasi" 2019 y.

³ I.M. Murabdullayev va boshqalar. O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi. 2020 y.

Gobionidae Bleeker, 1863 oilasi

18. *Pseudorasbora parva* (Temminck et Schlegel, 1846)

Leuciscidae Bonaparte, 1835 oilasi

19. *Abramis brama* (Linnaeus, 1758)

20. *Alburnus taeniatus* (Kessler, 1874)

21. *Capoeta heratensis* (Keyserling, 1861)

22. *Luciobarbus conocephalus* (Kessler, 1872)

Xenocyprididae Günther, 1868 oilasi

23. *Ctenopharyngodon idella* (Valenciennes, 1844)

Cyprinodontiformes Berg, 1940 turkumi

Poeciliidae Bonaparte, 1831 oilasi


24. *Gambusia holbrooki* Girard, 1859

Perciformes Bleeker, 1863 turkumi

Percidae Rafinesque, 1815 oilasi

25. *Sander lucioperca* (Linnaeus, 1758)

Janubiy O'zbekiston suv omborlarida tarqalgan gidrobiontlardan turi shubhali bo'lgan *Corbicula fluminalis* va *Pontastacus leptodactylus*lar molekulyar-genetik tahlil qilindi (1- rasmga qarang).



1-rasm. *Pontastacus leptodactylus* ni genetik tahlili bo'yicha tuzilgan felogenetik daraxt.


Olingan tahlil natijalariga ko'ra *Corbicula fluminalis* va *Pontastacus leptodactylus* turlari bilan evolyutsion o'zaro bog'liqlik jihatlari o'rganilib, turga aniqlik kiritildi.

Dissertatsiyaning "Janubiy O'zbekiston suv omborlari gidrobiontlarining bioxilma-xilligi" deb nomlangan to'rtinchi bobida Janubiy O'zbekiston hududida Surxondaryo va Qashqadaryo daryolarining bioxilma-xillik ko'rsatkichlari Jakar umumiylik koeffitsiyenti va Shennon xilma-xillik indeksi natijalari keltirilgan.

Qashqadaryo daryosi va uning atrofidagi suv ekotizimlarida gidrobiontlarning biotoplarda tarqalish xilma-xilligining Jakar formulasi bo'yicha umumiylik koeffitsiyenti hisoblab chiqildi. Qashqadaryo daryosining yuqori va o'rta qismlari solishtirilganda Jakar koeffitsiyenti $K=0,12$; daryoning o'rta va quyi qismlari solishtirilganda $K=0,42$ tashkil etdi.


Shuningdek, Surxondaryo daryosi va uning atrofidagi suv ekotizimlarida gidrobiontlarning biotoplarda tarqalish xilma-xilligining Jakar formulasi bo'yicha umumiylik koeffitsiyenti hisoblab chiqildi. Surxondaryo daryosining yuqori va o'rta qismlari solishtirilganda Jakar koeffitsiyenti $K=0,24$; daryoning o'rta va quyi qismlari solishtirilganda $K=0,45$ ni tashkil etdi.

Turlar xilma-xilligini aniqlash maqsadida Qashqadaryo va Surxondaryo daryolarini yuqori va o'rta oqimdagi gidrobiontlar bioxilma-xilligini Shennon indeksi bo'yicha ko'rsatkichlari tahlil qilindi.(2-rasm).



2- rasm. Qashqadaryo va Surxondaryo daryolarining Shennon indeksi ko'rsatkichlari.

Shennon bioxilma-xillik indeksi ko'rsatkichlari bo'yicha Qashqadaryo daryosi Surxondaryo daryosiga nisbatan bioxilma-xillik biroz yuqori ekanligi aniqlandi.



3- rasm. Surxandaryo havzasi suv omborlari gidrobiontlarining turlar soni bo'yicha tarqalishi.

Surxandaryo havzasidagi suv omborlari va uning atrofidagi suv ekotizimlarida jami bo'lib, 25 tur gidrobiontlar tarqalgan (3-rasm). Suv omborlardan Janubiy Surxon 19 ta, To'palangda 9 ta, Oqtepada 14 ta, Uchqizilda 10 ta, Degrezda 6 ta turlar tarqalganligi aniqlandi.

Surxondaryo havzasida asosiy yirik suv omborlaridan To'palang, Janubiy Surxon, Degrez, Oqtepa va Uchqizil suv omborlari joylashgan bo'lib, ushbu suv omborlaridagi yashaydigan gidrobiontlar bioxilma-xilligini Shennon indeksi orqali tahlil qildik. (1-jadval).

1-jadval

Surxondaryo hududlaridagi suv omborlarida tarqalgan gidrobiontlar bioxilma-xilligining Shennon indeksi bo'yicha ko'rsatkichlari.

Suv omborlar nomi	To'palang suv ombori	Janubiy Surxon suv ombori	Degrez suv ombori	Oqtepa suv ombori	Uchqizil suv ombori	Umumiy
Turlar soni	9	19	6	14	10	25
Individlar soni	44	141	28	76	65	354
Shennon indeksi qiymati	1,88	2,80	1,57	2,53	2,20	2,19

Hisoblashlar natijalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich Janubiy Surxon suv ombori 2,80; eng quyi ko'rsatkichni esa To'palang suv ombori 1,88 ni tashkil etdi.

Surxondaryo havzasi suv omborlaridan 4 ta tur birinchi bor ko'rsatildi. Jami turlarning 11 tasi stenabiont turlar, 4 tasi mezoeribiont, 10 tasi evribiont turlar hamda ushbu turlardan 4 tasi Qizil kitobga kiritilgan noyob turlar ekanligi aniqlandi. Suv ombori toshloq biotoplarida 7 ta, qumloq biotoplarda 12 ta va loyli bitoplarda 6 tur tarqalganligi o'rganildi. Suv omborlarda tarqalgan turlar telmatofil, reofil, fitofil, fitoreofil, pelolimnofil, limnofil va peloreofil ekologik guruhlariga mansubligi aniqlandi.

Qashqadaryo havzasidagi Tallimarjon, Qalqama, Qizilsuv, Chimqurg'on va Pachkamar suv omborlarida yashaydigan gidrobiontlar bioxilma-xilligini Shennon indeksi bo'yicha tahlil qildik. (2-jadval).


2-jadval.

Qashqadaryo hududlaridagi suv omborlarida tarqalgan gidrobiontlar bioxilma-xilligining Shennon indeksi bo'yicha ko'rsatkichlari.

Suv omborlar nomi	Qizilsuv suv ombori	Chimqurg'on suv ombori	Qalqama suv ombori	Pachkamar suv ombori	Tallimarjon suv ombori	Umumiy
Turlar soni	11	17	12	9	15	25
Individlar soni	58	120	73	39	122	412
Shennon indeksi qiymati	2,30	2,73	2,42	2,10	2,59	2,42

Hisoblashlar natijalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkichni Chimqurg'on suv ombori 2,73; eng quyi ko'rsatkichni esa Pachkamar suv ombori 2,10 ni tashkil etdi.

Qashqadaryo havzasidagi suv omborlari va uning atrofidagi suv ekotizimlarida Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Corbiculidae, Astacidae, Cyprinidae, Gobionidae, Leuciscidae, Xenocyprididae, Poecillidae, Percidae oilalariga mansub 25 tur gidrobiontlar tarqalganligi aniqlandi. (4-rasm).



4- rasm. Qashqadaryo havzasi suv omborlari gidrobiontlarining turlar soni bo'yicha tarqalishi.

Janubiy O'zbekiston hududida joylashgan suv omborlaridan 4 ta Talimarjon, Chimqurg'on, Janubiy Surxon va Oqtepa suv omborlarida tarqalgan gidrobiontlar xilma-xilligi Simpson indeksi, Shennon indeksi, Margalef indeksi va Bergar-Parker indeksleri bo'yicha tahlil qilib chiqildi. (3-jadval).

3-jadval.

Janubiy O'zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar faunasining xilma-xillik indeksleri

Ekologik xilma-xillik indeksleri	Qashqadaryo havzasi		Surxondaryo havzasi	
	Talimarjon suv ombori	Chimqurg'on suv ombori	Janubiy Surxon suv ombori	Oqtepa suv ombori
Xilma-xillik indeksleri				
Simpson indeksi	0,92	0,93	0,94	0,92
Shennon indeksi H'	2,59	2,73	2,80	2,53
Margalef indeksi, DMg	2,91	3,34	3,64	3,0
Dominantlik me'yorlari				
Bergar-Parker indeksi, d	0,13	0,10	0,11	0,13

Tahlil natijalariga ko'ra, Simpson, Shennon, Margalaf indeksleri bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo havzasining Janubiy Surxon suv omborida, Simpson indeksi bo'yicha -0,94; Shennon indeksi bo'yicha -2,80; Margalaf indeksi bo'yicha esa -3,64 ni tashkil etdi. Bergar-Parker indeksi turlarni dominantligini aniqlashda muhim indekslardan biri bo'lib hisoblanadi, ushbu indeks bo'yicha yuqoridagi suv omborlari tahlil qilinganda dominantlik me'yorlari jihatdan Qashqadaryo havzasidagi Talimarjon suv ombori va Surxondaryodagi Oqtepa suv ombori eng yuqori ko'rsatkich (0,13) ni tashkil etdi.

Tadqiqot olib borilgan hududning gidrobiontlar faunasining o'xshashlik darajalarini aniqlash maqsadida Jakkar va Chekanovskiy-Serensen ko'effitsienti bo'yicha o'xshashlik darajasi tahlil qilindi. O'rganilgan hududlar gidrobiontlari o'xshashlik ko'effitsienti ancha past. Hisoblangan o'xshashlik ko'effitsienti qiymatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Janubiy Surxon va Talimarjon suv ombori o'rtasida (Jakkar ko'effitsiyenti - 0,70; Chekanovskiy-Serensen ko'effitsiyenti -0,82), eng quyi ko'rsatkichi Chimqurg'on va Oqtepa suv omborlari o'rtasida. (Jakkar ko'effitsiyenti 0,47; Chekanovskiy-Serensen ko'effitsiyenti -0,64) qayd etildi. (4-jadval.)


4-jadval

Janubiy O'zbekiston suv omborlari gidrobiontlari faunasining o'xshashlik ko'effitsientlari (Jakkar\Chekanovskiy-Serensen ko'effitsiyenti bo'yicha).

Tadqiqot hududlari	Talimarjon suv ombori	Chimqurg'on suv ombori	Janubiy Surxon suv ombori	Oqtepa suv ombori
Talimarjon suv ombori	1	0,75	0,82	0,68
Chimqurg'on suv ombori	0,60	1	0,72	0,64
Janubiy Surxon suv ombori	0,70	0,56	1	0,78
Oqtepa suv ombori	0,52	0,47	0,65	1

Dissertatsiyaning "Gidrobiontlar populyatsiyasi, konxologik o'zgaruvchanligiga abiotik va antropogen omillarning ta'siri" deb nomlangan beshinchi bobida gidrobiontlar populyatsiyalaridagi individlarning yoshi va zichligiga suv gidrokimyoviy ko'rsatkichlarining ta'sirini Surxondaryo suv ekotizimlarida tarqalgan Corbiculidae va Astacidae oilalarining stenobiont turlari misolida tahlil qilindi. Adir mintaqasida joylashgan To'palang suv ombori suvining gidrokimyoviy tarkibi quydagicha O_2 $4,7 \pm 1,4$ m/g (REM K-4 Yo-6), Cl_2 278 ± 43 m/g (300), mineralanishi 892 ± 60 m/g (1000) ni tashkil etishini o'rgandik. Shu muhitda tarqalgan *Corbicula fluminalis* 1 yoshda $0,7 \pm 0,1$, 2 yoshda $0,6 \pm 0,1$, 3 yoshda

0,5±0,1, 4 yoshda 0,3±0,1 zichlikda tarqalganligini aniqladik. Shu muhitda *Pontastacus leptodactylus* 1 yoshda 1,0±0,2, 2 yoshda 0,8±0,2, 3 yoshda 0,4±0,2, 4 yoshda 0,2±0,1 zichlikka ega. (5. A-rasm). Bu yerda *Corbicula fluminalis* va *Pontastacus leptodactylus* populyatsiyalari kamayuvchi populyatsiyalar bo'lib hisoblanadi. Surxondaryo sohili cho'l mintaqasidagi Uchqizil suv ombori dengiz sathidan 323 m balandlikda joylashgan bo'lib, gidrokimyoviy ko'rsatkichlari quyidagicha O₂ 5,9±0,8 m/g, Cl₂ 298±27 m/g, mineralanishi 1022±44 m/g ni tashkil etishini aniqladik. Shu muhitda tarqalgan *Corbicula fluminalis* 1 yoshda 0,2±0,1, 2 yoshda 0,4±0,1, 3 yoshda 0,5±0,1, 4 yoshda 0,4±0,1 tarqalgan, *Pontastacus leptodactylus* 1 yoshda 0,3±0,2, 2 yoshda 0,6±0,1, 3 yoshda 0,9±0,2, 4 yoshda 0,8±0,1 zichlikda tarqalganligi aniqlandi (5.B-rasm). Ushbu ekotizimdagi suv muhitida gidrobiontlarning o'sish davrida zichlikning ortishi, lekin 4 yoshga yetganda populyatsiya zichligi biroz kamayishi kuzatildi. Bu yerda turlar populyatsiyasining o'sishi bilan boshlanib, keyinchalik kamayishga o'tdi, ammo umumiy ravishda, o'suvchi populyatsiya ekanligi aniqlandi.



5-rasm. A) Adir mintaqasi To'palang suv ombori hududi populyatsiyasi. B) Cho'l mintaqasi Uchqizil suv ombori hududi populyatsiyasi.

Tadqiqot davomida Janubiy Surxon suv omborlarida tarqalgan zog'ora (*Cyprinus carpio*) baliq'iga suv radiatsiyasining ta'siri va u orqali suvlarning radiatsiya balansi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan imkoniyatlari o'rganildi (5-jadval).

Janubiy O'zbekiston To'palang suv ombori suvlarida ²²²Rn 12,63 bk/kg miqdorda, suv omborida tarqalgan zog'ora (*Cyprinus carpio*) baliq tarkibida Stronsiy-90 tahlili bo'yicha ⁹⁰Sr 20,11 bk/kg, ⁴⁰K 27,54 bk/kg miqdorida, Seziy - 137 tahlili bo'yicha ¹³⁷Cs 1,74 bk/kg, ⁴⁰K 87,7 bk/kg miqdorida ekanligi aniqlandi. (5-jadval).

Janubiy Surxon suv ombori suvlarida ²²²Rn 5,54 bk/kg miqdorda, suv omborida tarqalgan zog'ora (*Cyprinus carpio*) baliq tarkibida Stronsiy-90 tahlili bo'yicha ⁹⁰Sr 22,21 bk/kg, ⁴⁰K 31,64 bk/kg miqdorida, Seziy - 137 tahlili bo'yicha ¹³⁷Cs 1,85 bk/kg, ⁴⁰K 99,7 bk/kg miqdorida ekanligini aniqladik (5-jadval).

Surxondaryo havzasi suv omborlarida Zog'ora (*Cyprinus carpio*) balig'i tarkibidagi ^{90}Sr , ^{40}K va ^{137}Cs tabiiy radioaktiv elementlarining solishtirma gamma-aktivligi (Bk/kg).

Tahlil namunalari	^{90}Sr	^{40}K	^{137}Cs
To'palang suv ombori			
Stronsiy Sr-90 bo'yicha	20,11	27,54	-
Seziy Cs-137 bo'yicha.	-	87,7	1,74
Janubiy Surxon suv ombori			
Stronsiy Sr-90 bo'yicha	22,21	31,64	-
Seziy Cs-137 bo'yicha.	-	99,7	1,85
REM	100	700	130

Surxondaryo havzasining suv omborlaridagi suv tarkibidagi ^{222}Rn va baliqlar tanasidagi Stronsiy ^{90}Sr , Seziy ^{137}Cs va Kaliy ^{40}K tabiiy radioaktiv elementlarining miqdori Surxondaryo daryosining yuqori qismidan quyi qismiga borgan sari nisbatan ortib borishi kuzatildi, lekin bu elementlarning miqdori REM ko'rsatkichidan past ekanligi aniqlandi.

Janubiy O'zbekiston hududidagi suv ekotizimlari ifloslanish holatini baholashda gidrobiontlarni bioindikatorlik xususiyatlari o'rganildi.

Janubiy O'zbekiston hududidagi suv ekotizimlaridan daryolarda o – oligosaprob toza suvlarda *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C. ferghanensis*, *Lymnaea subangulata* tarqalgan. α - alfa-mezosaprob suvlarda *L. thiessea*, *L. auricularia* uchradi. Qolgan turlar barchasi β – o'rtacha ifloslangan suvlarda yashaydi. Suv omborlariga keladigan va chiqadigan kanallarda o – toza suvlarda *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *Corbiculina tibetensis*; β – o'rtacha ifloslangan suvlarda *C. ferghanensis*, *L. thiessea*, *L. subangulata*, *L. bactriana*, *L. auricularia*; *C. purpurea*, *C. acuta*, *Planorbis planorbis*, *P. tangitarensis* turlari α – ifloslangan suvlarda yashashligi kuzatildi.

Ishning "Muhofazaga muhtoj suv mollyuskalari va ularni saqlab qolish choralari" paragrafidagi O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi" (2009, 2019)ga kiritilgan *Corbicula cor*, *C. fluminalis* hamda *C. purpurea* turlarini Janubiy O'zbekiston hududi bo'ylab yangi tarqalish joylari o'rganildi. Ular orasida *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea* va *Corbiculina tibetensis* turlari ekologik muvozanatda muhim rol o'ynovchi, ammo antropogen bosim, suv rejimining o'zgarishi va ifloslanishi sababli yo'qolish xavfi ostida turgan turlar sifatida qayd etildi. Shuningdek, *Corbiculina tibetensis*ning tarqalish hududlari tahlil qilindi hamda ushbu turga xalqaro baholash kategoriyalari bo'yicha, hozirda "Xavf ostida" (VU:B1ab(iii)) maqomida ekanligi aniqlandi. Mazkur turlarni saqlab qolish va ularning tabiiy populyatsiyasini barqarorlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

XULOSALAR

“Janubiy O‘zbekiston suv omborlarida gidrobiontlar bioxilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta’siri” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Janubiy O‘zbekistonning suv omborlari va ularga yondosh suv ekotizimlarida ikkipallali mollyuskalarning 1 oilasi va 2 urug‘iga mansub 5 turi, suv qorinoyoqli mollyuskalarining 3 oilasi va 3 urug‘iga kiruvchi 8 turi, yuksak qisqichbaqasimonlardan 1 tur hamda baliqlarning 6 oilasi va 11 urug‘iga mansub 11 turi aniqlandi. Tadqiqotlar natijasida ushbu hudud faunasi tarkibida ilk bor 4 tur – *Lymnaea subangulata*, *Lymnaea bactriana*, *Planorbis planorbis* va *Pontastacus leptodactylus* qayd etildi.

2. Tadqiqot hududida o‘rganilgan gidrobiontlarining 40%i evribiont, 16%i mezoevribiont va 44%i stenobiont turlar hisoblanadi. Biotop moslashuvchanligiga ko‘ra ikkipallali mollyuskalari barchasi peloreofil (5 tur – 100%); suv qorinoyoqli mollyuskalar telmatofil (3 tur – 37,5%), fitoreofil (1 tur – 12,5%), fitofil (4 tur – 50%); yuksak qisqichbaqa fitofil (1 tur – 100%); baliqlar reofil (6 tur – 54,5%), limnofil (4 tur – 36,3%), peloreofil (1 tur – 9,1%) ekologik guruhlariga bo‘linadi.

3. Gidrobiontlarning populyatsion zichligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Chimqo‘rg‘on suv omborida (7,1 ind./m²), eng past ko‘rsatkich esa Degrez suv omborida (4,6 ind./m²) kuzatildi. Bu tafovut, asosan, suv omborlariga quyiluvchi daryolarning suv hajmi va ularning geografik joylashuvi bilan izohlanadi.

4. Janubiy O‘zbekistonning yirik suv omborlarida gidrobiontlarning xilma-xillik ko‘rsatkichlari (Shennon/Simpson/Margalef indeksleri asosida) Tallimarjon suv omborida mos ravishda 2,59/0,92/2,91; Chimqo‘rg‘onda – 2,73 / 0,93 / 3,34; Janubiy Surxonda – 2,80 / 0,94 / 3,64 va Oqtepada – 2,53 / 0,92 / 3,0 ni tashkil etdi.

5. *Corbicula fluminalis* turiga mansub individlar To‘palang va Uchqizil suv omborlarida o‘zaro taqqoslab tahlil qilinganda, ularning konxologik xususiyatlardagi farqlari yashash muhitiga moslashganligini ko‘rsatdi, ya’ni cho‘l mintaqasidagi minerallanish yuqori bo‘lgan suvlarda ularning chig‘anoqlar massasi, hajmiy ko‘rsatkichlari adir mintaqasiga nisbatan kichikligi aniqlandi hamda turlardagi moslashuv ularning yashab qolish imkoniyatlarini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

6. Janubiy O‘zbekiston suv ekotizimlari turli antropogen ta’sirlar natijasida, suv muhitining gidrokimyoviy tarkibining o‘zgarishi sababli, suv ekotizimlaridagi mollyuskalar va baliqlarning yashash muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning populyatsiyalar sonining kamayishiga va tarqalish arealining qisqarishiga olib kelgan.

7. Janubiy O‘zbekiston hududidagi suv ekotizimlarida gidrobiontlarning 23% o-oligosaprob, 66% β – mezasaprob, 15% α – mezasaprob ifloslangan suvlarda yashovchi turlarni tashkil etdi. Hududdagi suv havzalarida suv sifatini baholashda *Corbicula purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *Lymnaea truncatula*, *L. subangulata*, *L. auricularia* va *Costatella acuta* turlaridan bioindikator sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan *Corbicula cor*, *C. fluminalis* va *C. purpurea* turlarining yangi tarqalish hududlari aniqlandi hamda *Corbiculina tibetensis* turini VU: B1ab(iii) maqomi asosida muhofazaga olish tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ Ph.D.08/2025.27.12.B.11.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ,
ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИИ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

АЛИЕВ БАХТИЕР ХОЖАЯРОВИЧ

**ВЛИЯНИЕ АБИОТИЧЕСКИХ И АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ НА
БИОРАЗНООБРАЗИЕ ГИДРОБИОНТОВ В ВОДОХРАНИЛИЩАХ
ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА**

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PHD/B939.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации доступен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) для научного совета (www.ssuu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz)

Научный руководитель:

Боймуродов Хусниддин Тошболтаевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна
доктор биологических наук, профессор

Шералиев Бахтиёр Махмудалиевич

доктор философии по биологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится « 08 » ноября 2026 года в 14.00 часов на заседании Научного совета PhD.08/2025.27.12.B.11.02 при Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (Адрес 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, д. 77, корпус 6, 3-этаж, кабинет - 693. Тел.: +99855-707-76-86, Fax: +99866-234-76-86, e-mail: ssuv@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (зарегистрирована под № 11164) (Адрес 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, д. 77. Тел.: +998-66-234-07-86).

Автореферат диссертации разослан « 01 » ноября 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 1 от « 01 » ноября 2026 года).



А.Р. Жабборов
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученой степени, доктор биологических наук, профессор

А.А. Нуридзиев
Секретарь научного совета по присуждению ученой степени, доктор философии по биологическим наукам, доцент

Х.Б. Юнусов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, доктор биологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире усиление засухи приводит к сокращению биоразнообразия природных водоемов, кризису водных экосистем. Исторически сложившиеся виды гидрофауны в природных водоемах имеют особое значение, изменение их биотопов под влиянием антропогенных и техногенных факторов приводит к трансформации фауны гидробионтов и исчезновению редких видов. В связи с этим выявление изменений в популяциях гидробионтов в регионах антропогенного воздействия и сохранение нуждающихся в охране видов имеет важное научно-практическое значение.

В мире важное значение имеет определение видового состава гидробионтов, находящихся под влиянием абиотических и антропогенных факторов, их экологическая оценка и рациональное использование. В этом направлении большое внимание уделяется научным исследованиям по инвентаризации видов гидробионтов в континентальных искусственных водных экосистемах, раскрытию их распространения в биотопах, созданию их международной базы данных, рациональному использованию экономически эффективных видов. Следует отметить, что выживаемость видов двусторчатых и брюхоногих водных моллюсков, высших раков и рыб в искусственных водоемах засушливых регионов зависит от изменения сезонного гидрологического режима и физико-химических свойств водохранилищ. В последние годы создание искусственных водных экосистем и расширение сельского хозяйства приводят к изменению видового состава гидробионтов, распространенных в сезонных или нестационарных водоемах, исчезновению большинства видов и расширению арсала инвазивных представителей. Внедрение новых гидробионтов в водные экосистемы под воздействием антропогенных факторов определяет трансформацию эндемичных гидробионтов региона или их кризис. Оценка современного состояния гидробионтов в водных экосистемах, выявление кризисных и подверженных кризису популяций, разработка рекомендаций по рациональному использованию экономически значимых видов имеет важное научное и практическое значение.

В настоящее время в нашей Республике достигнуты большие успехи в направлении охраны биоразнообразия животного мира искусственных водных экосистем и обеспечения устойчивости экосистем. В связи с этим разрабатываются меры по обеспечению устойчивости водных экосистем, охране и сохранению редких и исчезающих видов гидробионтов. В частности, в Стратегии «Узбекистан – 2030»⁴ определены важные задачи и меры по «обеспечению надежного сохранения биологического разнообразия». Исходя из этих задач, определение видового состава гидробионтов водных экосистем водохранилищ Южного Узбекистана, оценка влияния абиотических и антропогенных факторов на их разнообразие, а также разработка мер по

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О Стратегии Узбекистан-2030».

сохранению нуждающихся в охране видов имеет научно-практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, указанных в Законе Республики Узбекистан от 19 сентября 2016 года №ЗРУ-408 “Об охране и использовании животного мира”, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 18 августа 2023 года №ПП-281 “О мерах по совершенствованию порядка использования водоемов для нужд рыбоводческих хозяйств, а также развитию объектов лова рыбы и прибрежного туризма”, от 25 сентября 2017 года №ПП-3286 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы охраны водных объектов”, в Постановлении Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 6 мая 1995 года №81-I “О присоединении Республики Узбекистан к Конвенции о биологическом разнообразии, подписанной в Рио-де-Жанейро в 1992 году”, в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 декабря 2018 года №1034 “О мерах по организации подготовки, издания и ведения Красной книги Республики Узбекистан”, от 11 июня 2019 года №484 “Об утверждении Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы” и другими нормативно-правовыми актами, касающимися данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Сведения о видовом составе, экологии и биоразнообразии гидробионтов, распространённых в водных экосистемах, а также влиянии на них абиотических и антропогенных факторов отражены в научных работах, так двустворчатые моллюски исследованы такими зарубежными учёными как Huber Markus (2010, 2012), A.F. Bogan (2010, 2013), Cuttelod и др. (2011, 2014), S. Yoshida и др. (2015); водные брюхоногие моллюски T.D.Robert (2004), P.Glöer, I.Sirbu (2006), K.Skowronska-Ochmann, P.Cuber, I.Lewin (2012), A.D.Robert (2013); высшие ракообразные H.Baytashoglu (2021,2023), N.Peer, G.Gouws (2023, 2024); рыбы M. Kottelat (2012), V.B. Salnikov, I.Doadrio (2012), B.W.Coad, N.G.Bogutskaya (2012), J.S.Nelson, T.C.Grande, M.H.Wilson (2016), R. Van der Laan (2017), R. Fricke, W.N. Eschmeyer (2019), R. Froese, D. Pauly (2019), B. Sheraliyev, S. Allayarov, Z. Peng (2020) и другими.

В странах СНГ биологическое разнообразие, видовой состав, плотность распространения, популяции и индикаторные свойства гидробионтов, в том числе исследования по двустворчатым моллюскам проведены такими учеными, как В.Б.Богатова, Ю.И.Старобогатова (2005, 2010), Н.И.Андреева (2010), М.О.Сон (2010, 2012), Л.Н.Яновича (2013), Д.Б.Кузьменкина (2015); брюхоногих моллюсков изучали Э.Лазуткина (2003,2004), С.Андреева и др. (2017, 2018), T.Sitnikova et al. (2017), M.Vinarski et al. (2017, 2018); высших

ракообразных В.С.Лабай (2011), Ю.Н.Макаров (2012, 2016); исследования рыб отражены в работах Г.К.Камилова (1964, 1973), А.А. Аманова (1985).

